

**KORXONALAR ISHLAB CHIQARISHINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI
MANBALARI VA ZAHIRALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA
ULARNI BOSHQARISH**

**ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ НОВЫМИ
РЕСУРСАМИ И РЕЗЕРВАМИ В РАЗВИТИИ ПРОИЗВОДСТВА
ПРЕДПРИЯТИЙ**

**POSSIBILITIES OF USING AND MANAGING NEW RESOURCES AND
RESERVES IN THE DEVELOPMENT OF ENTERPRISES' PRODUCTION**

Olimova N.X

FDU, i.f.n., dots.,

Djuraboyeva D.M

FDU, talaba

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bozor islohotlarini amalga oshirishda O'zbekiston o'tish davri iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'plab o'tish davri iqtisodiyotidagi pasayishning haddan ziyod cho'zilib ketishi; iqtisodiyotning deindustrializatsiyasi; milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlik darajasining pastligi kabi iqtisodiy muammlarga duch kelganligi haqida fikr yuritiladi.*

Shular asosida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash va raqobatbardoligini oshirish hamda ishlab chiqarishini rivojlanirishning yangi manbalari va zahiralaridan foydalanish imkoniyatlari va ularni boshqarish borasida chora-tadbirlar majmuuni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: korxona, sanoat, ishlab chiqarish, zaxira, manbalar, resurslar, boshqarish, investitsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются экономические проблемы, присущие переходной экономике Узбекистана, такие как перенаселенность многих переходных экономик при осуществлении рыночных реформ; деиндустриализация экономики; низкий уровень конкурентоспособности национальных производителей.

На их основе приводятся рекомендации по реализации Комплекса мер по обеспечению устойчивого развития и повышению конкурентоспособности отраслей промышленности, возможности использования новых источников и резервов развития производства и управления ими.


Ключевые слова: предприятие, промышленность, производство, резервы, ресурсы, управление, инвестиции, конкурентоспособность.

Annotation. This article examines the economic problems inherent in the transitional economy of Uzbekistan, such as the overpopulation of many transitional economies in the implementation of market reforms; deindustrialization of the economy; low level of

competitiveness of national producers. Based on them, recommendations are given for the implementation of a set of measures to ensure sustainable development and increase the competitiveness of industries, the possibility of using new sources and reserves for the development of production and their management.


Key words: enterprise, industry, production, reserves, resources, resources, management, investment, competitiveness.

Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish mamlakatning tashqi iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'naliшини anglatadi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalg etilayotgan investisiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Hududlarda qulay investitsiya muhitini yaratish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni quyidagi 1-rasm orqali ifodalash mumkin. 1-rasmidan ko'rindiki, hududiy investitsion salohiyatni oshirish bilan birga hududiy investitsion risklarni pasaytirish orqali ularda investitsion jozibadorlikni oshirishga erishish mumkin.




1-rasm. Hududlarda qulay investitsion muhitni yaratish [3]


Milliy iqtisodiyotga jalg qilinayotgan investitsiyalar hajmi alohida hududlar bo'yicha taqsimlanish holati va undagi dinamik o'zgarishlar tahlil qilinganida hududiy tafovutlar va nomutanosibliklar mavjudligini ko'rish mumkin.



O'sish sur`atlari, % da



Jamiga nisbatan, % da



2-rasm. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar [5]


O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar ulushi 2018 yil bilan solishtirganda 0,9 foiz punktga o'sdi (2-rasm). Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan iqtisodiyotning neft-gaz, energetika tarmoqlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6511,9 mlrd. so'mni (dollar ekvivalentida 736,7 mln. AQSh doll.) va 2018 yilga nisbatan 71,2 %ni tashkil qildi. 2022 yil davomida asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,1 %i yoki 159,6 trln. so'mi jalg' etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 110,3 trln. so'm moliyalashtirildi.

Statistik tahlilni o'tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha. Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kreditlar (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 31,0 %), korxonalarining o'z mablag'lari (20,7 %) hisobidan amalga oshirildi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan Namunaviy loyihamalar asosida shahar va qishloq joylarda turar-joylar qurilishi bo'yicha yirik davlat ahamiyatidagi ijtimoiy investitsiya loyihasi amalga oshirildi [6] (1-diagramma).



1-diagramma. Yillar kesimida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari [5], % da

2022 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 15,2 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 74,9 %ni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi esa 2,0 % punktga kamayib, 5,6 % darajasida qayd etildi. Shuning bilan birga, aurim hududlarda, jumladan, Qoraqalrog'iston Respublikasi, boshqa hududlardagiga nisbatan juda kichik miqdorda xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalg' etilganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida, tahlil etilgan davr mobaynida barcha hududlarda xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalg' qilish dinamikasi nobarqaror bo'lganligini ko'rsatadi.



2-diagramma. Mamlakat hududlari kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar [5]


Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ko'rsatkichlar Qoraqalrog'iston Respublikasida - hududdagi jami investitsiyalarning 12,7 % ini, Surxondaryo viloyatida - 12,1 % va Jizzax viloyatida - 9,7 % miqdorida kuzatildi. Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar bo'yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning 52,1 % ini tashkil etdi. Shuningdek, Toshkent viloyatida 39,3 % va Navoiy viloyatida 30,7 %ni tashkil etdi. Jalg qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida o'ringa ega. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida kuzatilib, mos ravishda 77,5 va 56,8 %ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021 yilga nisbatan 84,4 %ni yoki 20,9 trln, so'mni tashkil etdi.



3-diagramma. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar [5]

Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mos ravishda 0,1 % punktga kamayib, 1,1 %ni tashkil etdi. Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan 21,1 trln. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,8 % ini tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 0,2 % punktga kamauish) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.



4-diagramma. Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari [5], % da

Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 %i yoki 25,8 trln. so'm o'zlashtirildi. Aholi mablag'lari hisobidan asosan uy-joylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan. Shundan kelib chiqib, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va xorijiy sarmoyani ko'proq jalb etishga erishish uchun mamlakatning haqqoniy va ishonchli imijini shakllantirish va targ'ib etish dolzarb masaladir.



5-diagramma. O'zbekiston Respublikasida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar [5] (jamiga nisbatan, % da)

Buning uchun avvalo, har bir mamlakat avval o'zining ichki va tashqi mamlakat imijini shakllantirishi juda muhimdir. Shuningdek, mamlakat aholisining turmush tarzi va turmush sifati muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatdir. Yaxshi turmush tarziga ega bo'lish uchun bir mamlakatning barcha shaharlari o'z faoliyatini yaxshilashi, ish joylari, yaxshi ma'lumotlarga ega bo'lishi va hkz. bo'lishi kerak [4].

Bozor islohotlarini amalga oshirishda O'zbekiston o'tish davri iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'plab o'tish davri iqtisodiyotidagi pasayishning haddan ziyod cho'zilib ketishi; iqtisodiyotning deindustrializatsiyasi; milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlik darajasining pastligi kabi iqtisodiy muammolarga duch keldi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi.

Sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta` minlash va raqobatbardoligini oshirish borasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar majmuuni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz:

Tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish va sanoat korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish. Bu yo‘nalishda biz alohida davlat korxonalarini xususiy investorlarga, shuningdek, davlat korxonalari funktsiyalarining bir qismini xususiy operatorlarga bosqichma-bosqich o‘tkazish yo‘li bilan davlat korxonalarini institutsional o‘zgartirish va isloh qilishga qaratilgan islohotlarga muhtojmiz. Sanoat korxona va tashkilotlarining yirik birlashmalarini klaster tipidagi tadbirkorlik sub`yektlariga (xoldinglar, qo‘shma korxonalar va boshqa sanoat va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalariga) aylantirish muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik yangilash jarayonlarini chuqurlashtirish. Shu munosabat bilan sanoat korxonalarining muntazam texnik va texnologik auditlarini o‘tkazish va asosiy fondlar parkini kengaytirish va yangilash borasida resurs, investitsiya va boshqa imkoniyatlarni izlab topish zarur. Bu muammoning yechimlaridan biri lizingni joriy etishni kengaytirish - mashina va uskunalarini uzoq muddatli ijara berishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarishning energiya sig‘imi va mahsulot tannarxini pasaytirish. Sanoat tarmoqlarining energiya va resurs sig‘imining nisbatan yuqori darajasini hisobga olgan holda, ilg‘or energiya va resurs tejamkor texnologiyalar, xalqaro sifat standartlari va texnik qoidalarini izchil joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Raqamlı iqtisodiyot unsurlarini izchil joriy qilish. Shu yo‘sinda, sanoat sektori uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri (Janubiy Koreya va shu kabi mamlakatlar tajribasi asosida) raqamlı texnologiyalar va qayta ishlash sanoatining o‘zaro konvergentsiyasini ta` minlash orqali “aqli fabrika” va “aqli zavod” yaratish hisoblanadi. Bu yo‘nalish butun ishlab chiqarish jarayonini birlashtiruvchi to‘liq integratsiyalashgan texnologik ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishni ko‘zda tutadi. “Aqli fabrikalar” ning afzalligi axborot texnologiyalari, aqli hisoblagichlar, nanomateriallarning jadal rivojlanishi va kiber-fizik tizimlardan foydalanish tufayli ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirishdan iborat.

Sanoat korxonalarida innovatsion rivojlanish omillaridan keng foydalanish va funktsional vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

birinchidan, innovatsiya faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash. Bunda innovatsion faolligini rivojlantirish uchun eng qulay mablag‘lar bank va boshqa ixtisoslashtirilgan moliyaviy tashkilotlarning maqsadli kreditlari hisoblanadi, chunki ular imtiyozli sharti bilan beriladi;

ikkinchidan, innovatsion jarayonlarning huquqiy bazasini yaratish. Bunda intellectual mulk ob`yektlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish innovatsion faoliyatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishida boshqa tarmoqlar singari sanoat tarmoqlari va ularda mahsulot ishlab chiqarishni modernizatsion holda diversifikatsiyalash hamda uning faolligini oshirish

dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki, sanoat tarmog'i aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda juda katta rol o'ynaydi.

O'zbekistonning xalqaro maydonda investitsion jozibadorligini oshirishga, buning natijasida esa mamlakat ishlab chiqarish va export salohiyatini rivojlantirish qolaversa, tashqi raqobatbardoshlik muhitini mustahkamlash, ichki bozorni milliy mahsulotlar bilan ta'minlash, aholining milliy brendlarga bo'lgan ishonchini qozonish eng dolzarb vazifalardan biridir. Xalqaro maydonda mamlakatning iqtisodiy va geosiyosiy nufuzini himoya qilish masalasida ham avvalo ishonchli va ijobiy imijni shakllantirish va targ'ib qilish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Bu shuni anglatadiki, o'z manfaatlari va talablarini ochiq aytaladi, dunyo iqtisodiy va siyosiy sahnasidagi rolni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston hukumatiga imijni yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha choralar ko'rish bo'yicha tavsiyalar quyidagilar [4]:

- transmilliy korporatsiyalar va mahalliy kompaniyalar o'rtasida o'zaro aloqalarni yaratish;
- muayyan sohalarda o'qitilgan kadrlarni jalb qilish maqsadida ta'lim muassasalari bilan bog'lanish;
- mamlakatning rivojlanmagan yoki chekka qismlariga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси 22.12.2022, <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон Стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021., 464 бет.

3. Haydarov A. Hududlarning investitsion salohiyati va istiqbol yo'nalishlari. // «Moliya» ilmiy jurnali, 2011 yil, 5-6 son, 99-bet.

4. Otamurodova Z. O'zbekistonda investitsion muhitni rivojlantirish orqali mamlakat imijiga ijobiy ta'sirini kuchaytirish masalalari. "Intercultural Communication and Mutual Understanding" // Journal of Advanced Research and Stability. ISSN: 2181-2608 // Special Issue. www.sciencebox.uz/2022 y., 294-298 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr

6. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

7. Олимова, Н., & Сайдмакмудов, С. (2023). Факторы эффективности деятельности промышленных предприятий и пути ее повышения. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(3), 44-48.

8. Олимова, Н. X., & Каримов, О. О. Ў. (2022). Корхона инновацион фаолиятини молиялаштириш самарадорлигини баҳолаш усуллари. *Academic research in educational sciences*, 4(1), 11-21.

9. Олимова, Н. Х. (2015). Экономический потенциал предприятий реального сектора и возможности выбора их стратегии управления. *НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «COGNITIO RERUM», 8(2015), 55.*

10. Олимова, Н. Х., Юсуфжонов, Х. В., & Умарова, Д. А. (2015). Условия развития текстильной промышленности при расширении отраслей реального сектора экономики. *НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «COGNITIO RERUM», 8(2015), 16.*

11. Олимова, Н., & Туйчиева, Б. (2023). Ҳозирги шароитда корхоналарни модернизациялаш орқали уларнинг молиявий барқарорлаштириш сиёсатини мустахкамлаш истиқболлари. *Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 146-153.*